

Bir asrning ikki dahosi

Joriy yilning 13 fevral kuni TIQXMMI Qarshi filiali hamda Milliy gvardiya Qashqadaryo viloyati bo'yicha boshqarmasi bilan hamkorlikda filial faollar zalida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud kunlariga bag'ishlab "Bir asrning ikki dahosi" shiori ostida viktorina, maqom va mushoira kechasi bo'lib o'tdi. Tadbirni TIQXMMI Qarshi filiali direktori Z.Muqimov ochib berdi. Alisher Navoiy va Bobur hayoti va ijodiga bag'ishlangan teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Filial direktori tadbirni yuqori saviyada o'tkazilishiga yaqindan yordam bergan hamkor tashkilotlarga o'z minnatdorchiligini bildirdi. Tadbir so'ngida viktorina musobaqasida g'olib jamoalarga va faol o'quvchi-yoshlarga diplom va esdalik sovg'alari berildi.



Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i B.Ro'ziqulov axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati Rahimboy Jumaniyozov